

(Byudjetdan mablag' oluychi muassasalarini maxsulotlar bilan ta'minlash haqida)

## Dangara tumani.

“9” dekabr 2022 yil.

Ushbu shartnoma bir tomonidan “Dangara komfort qurilish” MCHJ nomidan B.Dexxonov vakilligida kelgusida “Ijrochi” va ikkinchi tomonidan Moliya bo’limi boshlig‘i K.Latipov vakilligida kelgusida “Buyurtmachi” o’rtasida har ikki tomonning amaldagi “Nizom”lari va O’zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi va “Xo’jalik yurituvchi sub’yektlar faoliyatining shartnomaviy huquqiy bazasi to’g’risida”gi Qonuniga, shuningdek, boshqa amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq quyidagi mazmunda tuzdilar:

## I. Shartnoma predmeti.

1.1 “Ijrochi” “Buyurtmachi”ga ushbu shartnomaga asosan umumiyligi 44 800 000 (qirq to‘rt million sakkiz yuz ming so‘m  
(summa raqam va so‘z bilan yoziladi)  
bo‘lgan quyosh paneli maxsulotni (kelgusida “Tovar” deb nomlanadi)ni quyidagi narxlarda yetkazib beradi.

No	Tovar nomi	O'l.birligi	Miqdori	Narxi	Summasi
1	AKB 200A	dona	4	3800000	15200000
2	Quyosh paneli 200W	dona	4	5200000	20800000
3	Kontroller 30 A	dona	2	800000	1600000
4	Invertor 1kBt	dona	2	2100000	4200000
5	Quyosh suv isitkich	dona	1	3000000	3000000
	Jami				44800000

1.2. “Ijrochi” esa o‘z navbatida ushbu “Tovar” lar uchun kelishilgan haqni shartnomaning 2-bo‘limida belgilangan shartlar asosida “Buyurtmachi” ga to‘laydi.

## II. To'loy tartibi.

2.1. "Buyurtmachi" shartnoma imzolangandan so'ng yetkazib berilishi lozim bo'lган "Tovar" umumiy qiyamatining 30 % ni oldindan 13440000 so'm miqdorda "Ijrochi" ning hisob-raqamiga pul o'tkazish yo'li bilan to'laydi. Yetkazib berilgan "Tovar" lar to'lovining qolgan, ya'ni 70 % qismi esa "Buyurtmachi" tomonidan "Tovar" cabul qilib olingandan so'ng 30 (o'ttiz) kalendar kun ichida to'liq to'lab beriladi.

### III. Temonlarning huquq va majburiyatları

### 3.1 "Jirochi" ning huquq va majburiyatları:

3.1.1. "Buyurtmachi" tomonidan "Tovar" umumiy narxining 30 foizi "Ijrochi" ning hisob raqamiga oldindan to'langandan so'ng "Ijrochi" "Buyurtmachi" ni "Tovar" bilan ta'minlaydi.

oldindan to'langandan so ng "Ijrochi" "Buyurtmachi" hamda "Tovar"ni belgilangan tartibda hamda 3.1.2. "Ijrochi" "Buyurtmachi" ga tegishli hujjalilar asosida belgilangan standart sifat darajasida topshirish majburiyatini oladi.

3.1.3. "Ijrochi" "Buyurtmachi" ga qulaylik yaratish maqsadida "Tovar"ni o'z transport vositalarida "Iste'molchi" ning manzilgohiga yetkazib berishi mumkin. Bu holda transport vositasi orqali yetkazib berish harajati "Ijrochi" tomonidan qoplanadi.

“Ijrochi” tomonidan qoplanadi.

3.1.4. “Ijrochi” ning transport vositasida yetkazilgan “Tovar” ning miqdoridan aniqlangan kamomad hamda sifatsizliklar yuzasidan “Buyurtmachi” “Ijrochi”ning vakili ishtirokida “Tovar” yetkazilgan kundayoq dalolatnomaga tuzib holatni tasdiqlaydi. Mazkur dalolatnomaga asosan kamomad hisobi “Ijrochi” tomonidan to’ldiriladi. Agarda ushbu harakatlar o’z vaqtida amalga oshirilmasa e’tiroz asossiz deb hisoblanib, inobatga olimmaydi.

3.1.5. “Ijrochi” Sog’liqni saqlash tizimidagi yuqori tashkilotlar tasdiqlagan markazlashgan taqsimot orqali dori vositalari va muruvvat yordamlaridan kelgan “Tovar”lar bilan “Buyurtmachi”ni ta’minlaydi. Taqsimotni tasdiqlagan tashkilotning ruxsatisiz “Buyurtmachi” “Tovar” ni olishga haqli emas. Transport harajatlari “Buyurtmachi” tomonidan qoplanadi.

### 3.2 “Buyurtmachi”ning huquq va majburiyatları:

3.2.1. "Ijrochi" "Buyurtmachi" dan shartnoma tuzilgandan so'ng yetkazib berilishi lozim bo'lgan "Tovar" uchun ularning umumiyligi qiyamatining 30 foizini oldindan to'lagandan so'ng 10 kalendar kun ichida tegishli huquqtorni rasmiylashtirib "Tovar"ni ishonchnoma asosida qabul qilib olish huquqiga ega.

3.2.2. "Buyurtmachi" "Ijrochidan" dan O'zbekiston Respublikasida farmakologik ro'yxatdan o'tkazilib, ishlatalishga ruxsat etilgan, sifati, markirovka va o'ramlari amaldagi farmasevtik va texnik talablarga javob beradigan hamda sifat sertifikatiga ega bo'lgan "Tovar"larni talab qilish huquqiga ega. Yetkazib berilgan "Tovar" sifatsiz va hejlilangan texnik talablarga mos kelmasa, "Buyurtmachi" "Xo'jalik yurituvchi sub'yektlar faoliyatining

shartnomaviy-huquqiy bazasi to‘g‘risida”gi Qonuning 26-moddasiga muvofiq “Tovar”ni qabul qilishni hamda ularning haqini to‘lashni rad etib, “Ijrochi”dan sifatsiz va belgilangan texnik talablarga mos kelmaydigan “Tovar” qiyamatining 20 foizi miqdorida jarima undirishga haqli.

#### IV. KORRUPSIYAGA QARSHI QO‘SHIMCHA SHARTLAR

4.1. Taraflar shartnomadagi korrupsiyaga qarshi qo‘shimcha shartlarda belgilangan korrupsiyaning oldini olish choralarini tan oladi va ularga rioya etilishi bo‘yicha hamkorlikni ta‘minlaydilar.

4.2. Har bir taraf shartnoma tuzilgan paytda bevosita o‘zi yoki uning ijroiya organlari, mansabdor shaxslari va xodimlari tomonidan shartnoma bilan bog‘liq munosabalar yuzasidan qonunga xilof ravishda pul, moddiy qiyamatliklar berilmaganligini, shartnoma tuzilishi evaziga norasmiy pul yoki boshqa moddiy qiyamatliklar olinishiga yo‘l ko‘yilmaganligini, taklif etilmaganligini, ularni berishga va‘da qilinmaganligini, shuningdek moddiy yoki har qanday turdagи imtiyoz, ustunliklar olinmaganligini (kelajakda bu turdagи harakatlarni amalga oshirishi mumkinligi xaqida taassurot qoldirilmaganligini) kafolatlaydi.

Taraflar, ular tomonidan shartnoma doirasida jalg kilingan shaxslarning (yordamchi pudratchi tashkilotlar, agentlar va taraflar nazorati ostidagi boshqa shaxslarning) yuqoridagi harakatlarni sodir etmasligi yuzasidan oqilona choralar ko‘radi.

4.3. Taraflar davlat xizmatchilari, siyosiy partiyalar, shuningdek o‘zining ijroiya organlari, mansabdor shaxslari va xodimlari tomonidan xar qanday vaqt va shaklda quyidagi harakatlarni bevosita yoki bilvosita (shu jumladai, uchinchi shaxslar orqali) sodir etilishiga yo‘l qo‘ymaydi:

a) nazorat qiluvchi organlardan litsenziya va ruxsatnomalar olish, soliq solish, bojxona rasmiylashtiruvini amalga oshirish, sudda ish ko‘rilishi, qonunchilik jarayoni va boshqa sohalarda qonunga hilof ravishda tijorat yoki boshqa tusdagи ustunlikka ega bo‘lish yoki saqlab qolish maqsadida yuqoridagi shaxslar foydasiga yoki ular tomonidan moddiy yoki nomoddiy naf olishning taklif etilishi, va‘da qilinishi, berilishiga;

b) qonunga xilof ravishda olingen daromadlarning legallashtirilishiga, shuningdek, agar mulk jinoi faoliyatda olingen daromad ekanligi taraflarga ma‘lum bo‘lsa, uni o‘tkazish, mulkka aylantirish yoxud almashtirish yo‘li bilan uning kelib chiqishiga qonuniy tus berish, bunday pul mablag‘lari yoki boshqa mol-mulkning asl xususiyatini, manbaini, turgan joyini, tasarruf etish, ko‘chirish usulini, pul mablag‘lariga yoki boshqa mol-mulkka bo‘lgan xaqiqiy egalik huquqlarini yoki uning kimga qarashlilagini yashirishga;

v) korrupsiyaga oid huquqbazarlik sodir qilish uchun ta‘magirlik qilish, undan, tazyiq o‘tkazish yoki taxdid qilish. Ushbu xolat bo‘yicha bir taraf ikkinchi tarafni hamda vakolatli davlat organlarini darhol xabardor ishlishi shart.

4.4. Taraflar tovarlar, xizmat va ishlarni realizatsiya qilish va o‘tkazishda, bitimlar tuzish bo‘yicha muzokaralar olib borishda, litsenziya, ruxsatnomalar va boshqa ruxsat etish xususiyatiga ega bo‘lgan xujjalarni olishda yoki ularning manfaatlarini ko‘zlab boshqa harakatlarni amalga oshiruvchi taraflarni nazorati ostida bo‘lgan va ular nomidan harakat qiladigan shaxslarga (shu jumladan, yordamchi pudratchilar, agentlar, savdo vakillari, huquqshunoslar, hisobchilar, ular nomidan harakat qiluvchi boshqa vakillarga) nisbatan quyidagi harakatlarni amalga oshirishi shart;

- korrupsiyaviy xarakatlarga yo‘l qo‘yib bo‘lmasligi va korrupsiyaviy harakatlarga nisbatan murosasiz munosabatda bo‘lishi shartligi haqida ko‘rsatmalar va tushuntirishlar berish;

- ulardan korrupsiyaviy xarakatlarni amalga oshirish uchun vositachi sifatida foydalanmaslik;

- ularni faqat tarafniig oddiy kundalik faoliyatni jarayonidagi ishlab chiqarish zarurati doirasidan kelib chiqib ishga jalg qilish;

- ularga qonunchilik doirasida amalga oshirgai xizmatlari uchun belgilangan xaq miqdorida asossiz ravishda ortiqcha to‘lovlarni amalga oshirmsaslik.

4.5. Taraflar ularning nazorati ostida bo‘lgan va ular nomidan harakat qiladigan shaxslar tomonidan korrupsiyaga qarshi qo‘shimcha shartlarda belgilangan majburiyatlar buzilganligi holatlari xaqida xabar berilganligi uchun ularga tazyiq o‘tkazilmasligini kafolatlaydilar.

4.6. Agar bir tarafga boshqa tarafning korrupsiyaga qarshi qo‘shimcha shartlarning 4 va 5-bandlarida belgilangan majburiyatlarni buzilishiga yo‘l qo‘yanligi ma‘lum bo‘lib qolsa, ikkinchi tarafni bu xakida zudlik bilan habardor qilishi va ushbu tarafdan oqilona muddat ichida tegishli choralar ko‘rilishini va amalga oshirilgan ishlar yuzasidan unga xabardor qilishini talab qilishi shart.

Tarafning talabi bo‘yicha ikkinchi taraf tomonidan qoidabuzarliklarni bartaraf qilish bo‘yicha oqilona muddat ichida tegishli choralar ko‘rilmagan yoki ko‘rib chiqish natijalari xaqida xabardor qilmagan taqdirda, ushbu taraf shartnomani bir taraflama to‘xtatib turishga, bekor qilishga hamda zararni to‘liq qoplab berishni talab kilishga xaqli.

#### V. Tomonlarning mulkiy javobgarliklari

5.1. Tomonlarning mulkiy javobgarliklari O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksi, “Xo‘jalik yurituvchi sub‘yektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to‘g‘risida” gi Qonuni va boshqa amaldagi qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi.

5.2. “Buyurtmachi” tomonidan “Ijrochi”ga berilgan yillik berilgan buyurtmalarni “Buyurtmachi” ushbu shartnomaning umumiylaridan kelib chiqqan holda to‘liq olishi shart. Aks holda “Buyurtmachi” dan O‘zbekiston Respublikasi “Xo‘jalik yurituvchi sub‘yektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to‘g‘risida” gi Qonuning 31-moddasiga muvofiq olinmay qolgan (olish asossiz rad etilgan) “Tovar” summasining 5 soizi, tez buziladigan “Tovar”lar bo‘yicha esa 10 foizi miqdorida jarima undiriladi

5.3. "Ijrochi" tomonidan yetkazib berilgan "Tovar" uchun to'lanishi lozim bo'lgan to'lov haqi "Buyurtmachi" tomonidan o'z vaqtida amalga oshirilmasa, O'zbekiston Respublikasining "Xo'jalik yurituvchi sub'yektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida" gi Qonuning 32-moddasiga muvofiq to'lov kechiktirilgan har bir kun uchun to'lanishi lozim bo'lgan umumiy summaning 0,4 foizi mikdorida, ammo kechiktirilgan to'lov summasining 50% dan ortik bo'limgan miqdorda "Ijrochi" ga penya to'laydi.

5.4. "Buyurtmachi" tomonidan "Ijrochi"ga yillik berilgan buyurtmalarni yetkazib berishni "Ijrochi" asossiz ravishda kechiktirsa, kechiktirilgan har bir kun uchun "Ijrochi" "Buyurtmachi"ga yetkazib berilmagan "Tovar" umumiy qiymatining 0,5 foizi miqdorida, ammo yetkazib berilmagan tovar umumiy qiymatining 50 % dan ortiq bo'limgan miqdorda penya to'laydi.

## VI. Fors-major xolatlari

6.1. Taraflardan xech biri boshqa tarafning oldida ushbu shartnoma bo'yicha olgan majburiyatlarni taraflarning erki va istagidan tashqari paydo bo'lgan va ularni oldindan ko'ra bilish yoki bartaraf etish mumkin bo'limgan holatlar (urushlar, fuqarolik tartibsizligi, epidemiya holati, blokada, embargo, tabiiy ofatlar) bilan bog'liq holatda bajarmaganligi uchun javobgar bo'lmaydi.

## VII. Nizolarni hal qilish tartibi

7.1. Ushbu shartnoma yoki unga bog'liq masalalar yuzasidan kelib chiqadigan barcha nizolar tomonlar o'rtaida muzokara yo'li bilan hal qilinadi. Agarda kelishuvga erishilmasa qonunchilikda belgilangan tartibda "Ijrochi" joylashgan joydagi iqtisodiy sud tomonidan hal qilinadi.

## VIII. Shartnoma muddati va uni o'zgartirish tartibi

- 8.1. Mazkur shartnomaga kiritiladigan barcha o'zgartirishlar va qo'shimchalar faqat tomonlarning o'zaro yozma kelishuvlari bilan kiritilishi mumkin.
- 8.2. Shartnoma bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan ikki nusxada tuzildi.
- 8.3. Ushbu shartnoma g'aznachilik bo'limi tomonidan ro'yxatdan o'tkazilgan kundan boshlab yuridik kuchga kiradi.
- 8.4. Shartnoma 2022 yil "31" dekabr kuniga qadar amal qiladi.

## IX. Tomonlarning pochta manzili va to'lov rekvizitlari:

**"Ijrochi"**

**"Dangara komfort qurilish" MCHJ**

**manzil:** Dang'ara tumuni Qum Qiyali qishlog'i

**INN:** 302135859

**XR:** 20208000104843564001

**Universal honk Qo'yon filiali MFO 00973**

**OKONX 61110**

**Rahbar:** \_\_\_\_\_ B. Dexqonov  
(imzo, muxr, F.I.O.)



**"Buyurtmachi"**

Moliya bo'limi

**manzil:** Dang'ara tumuni Muqumiyo ko'cha  
**x/r:** 100022860302367011312092001

**STIR:** 200165098 OKONX 97160

G'aznachilik bo'linmasi nomi:

Dang'ara

Markaziy bank Toshkent shahar Bosh  
boshqarmasi XKKM

**Yagona g'azna x/v:** 23402000300100001010

**MFO:** 00014 **STIR:** 201122919

Tel: 73 572 11 80

**Rahbar:** \_\_\_\_\_ K. Latipov  
(imzo, muxr, F.I.O.)



# **YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO‘G‘RISIDA HUQUQIY XULOSA**

**UI5107503752**

- 1. Loyihaning turi : Shartnoma**
- 2. Loyihaning nomi: Xo‘jalik munosabatlari**
- 3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma’lumot:** Dang‘ara tumani Moliya bo‘limi tomonidan 09.12.2022 yilda kiritilgan.

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

**Dang‘ara tumani  
yuridik markazi  
bosh yuristkonsulti:**



**D.M.Kaxxorov**

09.12.2022